

NAMANGAN UYEZDIDA SOG’LIQNI SAQLASH TIZIMI VA UNDA RO’Y BERGAN O’ZGARISHLAR HUSUSIDA

Farxodjonov Farruh Oybek o’g’li

Namangan davlat pedagogika instituti, tayanch doktoranti

email: farxodjonov1998nd@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21130310>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o’lkasi bosib olingach Namangan uyezdida an’anaviy tabobat tizmining saqlanib olishi bilan birga zamonaviy tizimdagi tibbiyot tizimi kirib kelishi aytib o’tilgan. Shu bilan birga zamonaviy tizimdagi tibbiyot muassasalari va undagi moddiy texnik bazadagi muommalar, hamda uyezd aholisiga nisbatan kadr masalasi haqida statistik ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Turkiston, uyezd, feldsher, sog’liqni saqlash tizimi, kasalxona, vrach, Namangan, Chust, tibbiy xizmat, dorixona.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс сохранения системы традиционной медицины в Наманганском уезде после завоевания Туркестанского края Российской империей, а также проникновение системы медицины современного типа. Наряду с этим приведены статистические данные о деятельности медицинских учреждений современного типа, проблемах их материально-технической базы, а также вопросах обеспечения медицинскими кадрами населения уезда.

Ключевые слова: Туркестан, уезд, фельдшер, система здравоохранения, больница, врач, Наманган, Чуст, медицинское обслуживание, аптека

Abstract: This article discusses the preservation of the traditional medical system in Namangan Uyezd after the conquest of Turkestan by the Russian Empire, alongside the introduction of a modern healthcare system. The article also provides statistical data on modern medical institutions, problems related to their material and technical base, and issues concerning the availability of medical personnel for the population of the uyezd.

Keywords: Turkestan, uyezd, feldsher, healthcare system, hospital, doctor, Namangan, Chust, medical service, pharmacy.

Namangan uyezdida an’anaviy tabobat keng tarqalgan bo’lsada lekin zamonaviy sog’liqni saqlash tizimi hali ham shakllanish bosqichida edi. Qolaversa uyezd tibbiyot tizimida moddiy-texnik bazasi va tashkiliy tuzilmasi barcha aholi qatlamiga birdek xizmat qila oladigan darajada rivojlanmagan edi. Mavjud tibbiy infratuzulmaning cheklanganligi sog’liqni saqlash tizmining zaifligini ko’rsatadi.

Uyezdida faoliyat yuritgan tibbiyot muassasalari soni juda kam edi. Jumladan, uyezd markazi Namangan shahrida joylashgan markaziy kasalxona 20 o’rinlik edi holos, shu bilan birga alohida ayollar va bolalar uchun 10 o’rinli davolash maskani faoliyat yuritgan. Chust markazida joylashgan tibbiyot bo’limi esa undanda achinarli ahvolda bo’lib atigi 5 kishini o’ziga qabul qila olgan holos.[1, 111] Ushbu ko’rsatkichlar aholining umumiy soniga nisbatan nihoyatda past bo’lib, oddiy aholini tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini keskin cheklab qo’yan.

Sog’liqni saqlash tizimining yana bir eng dolzar muammolaridan biri tibbiyot kadrlari yetishmovchiligi edi. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, Namangan shahridagi tibbiyot muassasasida bitta vrach va bitta ayol vrach zimmasiga butun shahar aholisi 60316 nafar fuqaro to’g’ri kelgan. Uyezd miqyosida esa bu ko’rsatkich undanda achinarli bo’lib, 328407



nafar aholiga bir dona vrach to’g’ri kelgan.[1, 112] Ushbu holat shuni ko’rsatadiki oddiy aholi deyarli malakali tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatiga ega bo’lmagan.

Birlamchi tibbiy xizmat ko’rsatish tizimi ham achinarli holatda edi. Butun uyezd hududida atigi ikkita feldsher amblutor punkti faoliyat yuritgan bo’lib, ular asosan qishloq hudud aholisi uchun xizmat qilgan.[1, 111] Biroq bu punktlarning soni aholi jon boshiga juda kam edi. Qolaversa ushbu punktlarning jihozlanish darajasi ham unga bo’lgan talab va ehtiyojni qondirish uchun yetarli emas edi. Shuningdek dorixonalar tarmog’i ham rivojlanmagan edi. Uyezd markazi Namangan shahrida ham bir dona dorixona faoliyat yuritgan. Uyezdning yana bir yirik shahri Chust shahrida esa bitta shtatli dorixona mavjud edi. Shundan anglanadiki oddiy aholini dori vositasi bilan ta’minlash darjasi ham past bo’lgan.

Sog’liqni saqlash tizimi tarafidan profilaktika ishlari ham olib borilgan. Xususan turli xil yuqumli kasalliklarga qarshi emlash ishlari ham bosqichma bosqich yo’lga qo’yilgan. 1882- yilda havfli yuqumli kasalliklaridan biri bo’lgan chechak kasalligiga qarshi uyezdida jami 147 kishi emlash jarayoniga jalb etilgan. Ammo ulardan 86 nafarini emlashga erishishgan, qolgan 61 nafari esa rad etishgan yoki ma’lum sabablarga ko’ra yakunlasha olmagan. [2, 34] Ikki yil o’tgach esa ushbu ko’rsatkich sezirarli oshadi. Umumiy hisobda 5298 kishi chechak kasalligiga qarshi emlashga jalb qilinib, ulardan 4251 nafari muvaffaqiyatli emlanadi, 1047 kishi esa emlanmagan. [3, 107] Shundan ma’lum bo’ladiki hukumat va aholi o’rtasida asta-sekin tibbiy madaniyat vujudga kelayotganini ko’rsatadi.

Moliyaviy masala ham tibbiyot tizimiga bevosita o’z ta’sirini o’tkazmay qolmagan. Ko’pincha davolanish va dori vositalarga bo’lgan sarf harajatni bemor o’zi amalga oshirishgan bo’lsada ammo kasalxona ta’miri va shunga o’xshagan sarf harajat davlat byudjetidan amalga oshirilgan. 1890-yilda Namangan uyezd markaziy kasalxonasiga 4651.17 rubl, Chust tibbiyot bo’limiga esa 667.11 rubl mablag’ ajratilgan. Shuningdek Namangan markaziy shifoxonasini ta’mirlash uchun 284.95 rubl mablag’ ajratilgan. [4, 98] Ushbu raqamlar sog’liqni saqlash tizimiga davlat byudjetidan ajratilgan mablag’lar umumiy xarajatlar tarkibida ustuvor yo’nalish deb hisoblanmagan.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Namangan uyezdida sog’liqni saqlash tizimi asta-sekin shakllana boshlagan bo’lsada, u hali to’laqonli va barcha aholi qatlamini qamrab oladigan darajada rivojlanmagan edi. Uyezd hududida an’anaviy tabobat uzoq vaqt davomida asosiy davolash vositasi sifatida saqlanib qolgan bo’lib, zamonaviy tibbiyot muassasalari esa cheklangan miqdorda faoliyat yuritgan. Kasalxonalar, feldsherlik punktlari va dorixonalarining kamligi aholining malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini sezilarli darajada checlab qo’yg’an. Shuningdek, tibbiyot kadrlari yetishmovchiligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi hamda moliyaviy mablag’larning yetarli darajada ajratilmaganligi sog’liqni saqlash tizimining asosiy muammolaridan biri bo’lib qolgan. Ayniqsa, bir nafar vrach zimmasiga juda katta miqdordagi aholi to’g’ri kelgani tibbiy xizmat sifati va qamroviga salbiy ta’sir ko’rsatgan. Biroq shunga qaramay, yuqumli kasalliklarga qarshi emlash ishlarining yo’lga qo’yilishi, zamonaviy tibbiyot muassasalarining tashkil etilishi hamda profilaktik tadbirlarning amalga oshirilishi uyezd hududida yangi tibbiy madaniyat shakllana boshlaganidan dalolat beradi. Demak, Namangan uyezdidagi sog’liqni saqlash tizimi mustamlakachilik davrining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida faoliyat yuritgan bo’lib, mavjud kamchiliklarga qaramasdan keyingi davr tibbiyot tizimi rivojlanishi uchun muayyan asos vazifasini bajargan.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

**“Pedagogik ta’lim va tarbiya
transformatsiyasida fundamental,
amaliy va innovatsion
tadqiqotlarning konseptual
asoslari” mavzusidagi Xalqaro
ilmiy-amaliy anjuman materilalari
to’plami**



23.06.2026

**Proceedings of the International
Scientific and Practical
Conference on “Conceptual
Foundations of Fundamental,
Applied, and Innovative
Research in the Transformation
of Pedagogical Education and
Upbringing”**

1. Обзор Ферганской области за 1900 год. –Новый Маргелан.: Типография Ферганского областного правления, 1901 г. – 109-111 с
2. O‘zMA F I-19, ro‘uxat- 1, 908-yig‘ma jild, 34-varaq
3. O‘zMA F I-19, ro‘uxat- 1, 1458-yig‘ma jild, 107-varaq
4. Обзор Ферганской Области за 1890 год 98 стр